

## **QORAQALPOQ TILIDAGI AYRIM FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK TAHLILI**

**Toliyeva Shoira Ilhomovna**

Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu bu maqolada qoraqalpoq tilidagi ayrim frazeologizmlar semantik jihatdan. Qoraqalpoq adabiyotidagi ayrim xalq og‘zaki ijodiga mansub maqol va dostonlardagi iboralar tahlilga tortilgan. Shuningdek, maqolada qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlar mavzuviy guruhlari haqida so‘z borgan.

**Kalit so‘zlar:** Frazeologiya, frazema, frazeologizm, qoraqalpoq tili, frazeologik birlik, maqol, somatizm, tasviriy ifoda, hikmatli so‘z, doston.

Qoraqalpoq tilshunosligida Jiyenbay Eshbayev “Qaraqalpaq tiliniń qisqasha frazeologik sózligi” (1985), G.Aynazarova “Qaraqalpaq tilindegi eki komponentli frazeologizmler” nomzodlik dissertatsiyasi (2000), Sh. Abduazimov hamda E. Berdimuratov kabi tilshunos olimlar frazeologiya sohasi bo‘yicha bir qator tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlar o‘rta va yuqori o‘quv o‘rinlari uchun mo‘ljallangan darsliklarga kiritilishi bilan birga alohida ilmiy tadqiqot ishi sifatida ham tadqiq qilindi. Ushbu tadqiqotlarda qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlar semantik tarafdan to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganilgan: frazeologiyalıq ótlesiwler, frazeologiyalıq birlikler, frazeologiyalıq dizbekler, frazeologiyalıq sózler.

- Frazeologiyalıq ótlesiwler. Frazeologiyalıq ótlesiwler – ular tarkibidagi so‘zlar o‘zlarining leksik ma’nosini yo‘qotib, barchasi bir ma’noni anglatadi. Masalan: Pıshıq murni batpastay, toǵayga barip kiredi. Bu misoldagi “pıshıq murni batpaytuǵın”

turg‘un birikmasi “qalin toǵay” (qalin to‘qay) ma’nosini anglatib, undagi so‘zlar o‘zlarining yakka ma’nosini yo‘qotib, barchasi umumiy bir ma’noni anglatib kelayapti.

Frazeologiyalıq ótlesiwlar dostonlarda ham uchraydi:

Sol waqıtta xalıqtıń, arasına ot salǵan;

Eki qolıńdı tiǵıp qaldıń murnıńa;

Eli menen qosılıp, shaǵal máslik qıladı;

Jer tanabin quwırıdı;

Jer menen jeksen bolarsań.

(“Qirq qız” dostoni)

Ushbu misollardagi frazeologiyalıq ótlesiwlar quyidagi ma’nolarni bildiradi:

“arasına ot salıw” — «awızbirshiligin buzıw, bereketin qashırıw» ma’nosida,

“eki qolın murnına tiǵıp qalıw” — «heshnársege iye bolmay qalıw barınan ayırılıw» ma’nosida,

“shaǵal máslik qalıw” — “qatti quwanıw, ayshi-áshiret quriw” ma’nosida,

“jer tanabın quwırıw” — “tez, shaqqan júriw” ma’nosida,

“jer menen jeksen bolarsań” — “qazalaniw, qaytıs bolıw” kabi ma’nolarda qo‘llanilgan.

Yuqoridagilardan boshqa “Qirq qız” dostonida quyidagicha frazeologiyalıq otlesiwler uchraydi: betine kúye jaǵıw, Atına teris mingiziw, tágbe etiw, ǵayıp bolıw, bir pul etiw, jigerin qum etiw, kózine qan tolıw va boshqlar.

- Frazeologiyalıq birlikler. Turg‘un so‘z birikmalari qurilishidagi so‘zlarning bittasi yakka holdagi ma’nosini saqlab qoladi. Frazeologizmlarning bu turi frazeologiyalıq birlikler hisoblanadi.

Masalan:

Qulaq saldı qaytadan;

Qulaǵına ilmedi;

Bende qıldını sen ariwdi qulaq as;

Gúrmelip tili barmadı;

Bu misoldagi “qulaq saldı” frazeologik birligi “tiňladı” degan ma’noni anglatadi, “qulağına ilmedi” frazeologik birligi “tiňlamadi” degan ma’noni, “qulaq as” frazeologik birligi “tiňla” degan ma’noni, “gúrmelip tili barmaw” — “batılı barıp ayta almaw” degan ma’noni, “mańlay shıtpaw” — “ashıwlanbaw” degan ma’noni, “kewlin alıw” — “kewlin shad qılıw” degan ma’noni, “kewli toq bolıw” — “qapa qılmaw” degan ma’noni anglatish uchun qo’llanilgan. Bulardan boshqa dostonda quyidagi frazeologik birliklar qo’llanilgan: tabaǵa qalmaw, miyri qanıw, ada bolmaw, shıbin jan, kóz shaladi, kózine is kóriniw, arqasi qozıw, ayı alınıw, qazan urıw, tań qalıw, esi awıw, esten tanıw, qani qashiw, qulaǵın tigiw, kewlin kóteriw, bas iyıw, áwere sarsań bolıw va boshqalar.

- Frazeologiyalıq dizbekler. Frazeologiyalıq dizbeklarning tarkibidagi so‘zlarning ma’nosı alohida holdagi ma’nosiga juda yaqin bo‘lib keladi. Masalan:

Qabaǵın úyip Jurin taz;

Gúlayımjan, aqlımdı almasań;

Bu misollardagi “qabaǵın úyiw – “ashıwlanıw, qapa bolıw” degan ma’noni, “aql alıw” – “keńesti tińlaw” degan ma’noni, “moynın burmaw” – “tiňlamaw, qayırılmaw” degan ma’noni, “ishi biliw” – “tek ózine belgili” degan ma’noni, “qas qaqpaw” - “uyıqlamaw” degan ma’noni, “quwanıshı qoynına sıymaw” – “shennen tis quwanıw” degan ma’nolarni anglatadi.

Ushbu dostonda yana kózi tınıw, tisin qayraw, kózine kórsetiw va boshqa ko‘plab frazeologiyalıq dizbekler uchraydi.

- Frazeologiyalıq sózler. Professor E.Berdimuratov qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlardi semantik tarafdan tahlil qilishda qoraqalpoq tilidagi maqollar, idiomalarni frazeologizmlarning alohida bir turi sifatida qarab, “frazeologiyalıq sózler” degan termin bilan ataydi.

“Qirq qız” dostonida oz miqdorda bo‘lsa ham mana shunday frazeologizmlar uchraydi. Masalan:

Batır ańqaw er gódek;

Jamanlıq qılsań birewge;

Sol aldińa keledi;

Óltiremen dep birewdi;

Orlar qazsa tórt qırlap;

Sol adam burın óledi;

(“Qırq qız” dostoni)

“Qırq qız” dostonidagi maqollar tarkibidagi so‘zlarning o‘rin tartibi almashtrib qo‘llanilgan. Masalan, qoraqalpaq tilida “Birewge jamanlıq qılsań, aldińa sol keledi” degan maqol bor. Bu maqol dostonda “Jamanlıq qılsań birewge, sol aldińa keledi” kabi so‘zlarning tartibi o‘zgartirilib qo‘llanilgan, lekin o‘rinlari o‘zgargani bilan uning ta’sirchanligi oshgan. Shuningdek, “Qatınnıń shashi uzın, aqılı kelte” degan maqol “Jasaǵanda qatınnıń aqılı kelte, shashi uzın” kabi qo‘llanilgan. Dostonni aytuvchi baxshilar ta’sirchanlikni kuchaytirish maqsadida yuqoridagi kabi maqollar tarkibiga o‘zgarish kiritib, so‘zlarning o‘rin tartibini o‘zgartirib qo‘llagan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Xojiyev A, Begmatov E., “Hozirgi o‘zbek adabiy tili va uni o‘rganishning aktual masalalari” O‘zbek tili va adabiyoti 1992.
2. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent 1985-yil.
3. Iskandarova Sh.M. O‘zbek tili leksikasining mazmuniy maydon sifatida o‘rganish. Filologiya fanlari doktori diss.Avtoref. Toshkent, 1999.
4. Jiyenbay Eshbayev, “Qaraqalpaq tiliniń qısqa frazeologiyalıq sózligi”, Nukus shahri, “Qaraqalpaqstan”, 1985-yil.